

“FALAKNING GARDISHI” KINOQISSASIDA IJTIMOIIY DETERMINIZM VA SHAXS TANLOVI

Jozilova Mohigul Orif qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharof Boshbekovning “Falakning gardishi” kinoqissasida ijtimoiy determinizm va shaxs tanlovi masalalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar taqdirining shakllanishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va ma’naviy omillarning o’rni yoritilib, ayniqsa, Shavkat obrazi misolida inson hayotida tashqi ta’sirlar hamda individual irodaning o’zaro munosabati tadqiq etiladi. Muallifning inson va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari qahramonlarning ruhiy kechinmalari hamda hayotiy tanlovlari orqali ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy determinizm, shaxs tanlovi, Shavkat obrazi, xarakter evolyutsiyasi, ijtimoiy muhit, badiiy konflikt, kinoqissa.

Аннотация. В статье анализируется художественное осмысление проблемы социального детерминизма и личного выбора в киноповести Шарофа Бошбекова «Фалакнинг гардиши». Рассматривается влияние социальной среды, семейных обстоятельств и духовных факторов на формирование судьбы героев. Особое внимание уделяется образу Шавката, в котором раскрывается взаимодействие внешних условий и личной воли человека.

Ключевые слова: социальный детерминизм, личностный выбор, образ Шавката, эволюция характера, социальная среда, художественный конфликт.

Abstract. This article examines the artistic interpretation of social determinism and personal choice in Sharof Boshbekov’s screenplay novella “Falakning gardishi”. The study explores the influence of social environment, family circumstances, and spiritual factors on the formation of human destiny. Particular attention is paid to the character of Shavkat, through whom the interaction between external conditions and individual will is revealed.

Keywords: social determinism, personal choice, Shavkat character, character evolution, social environment, artistic conflict, screenplay novella.

Badiiy adabiyot inson va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi muhim ma’naviy hodisalardan biridir. Har qanday adabiy asarda qahramon taqdiri muayyan ijtimoiy sharoit bilan uzviy bogʻliq holda tasvirlanadi. Shu bilan birga, insonning shaxsiy irodasi va hayotiy tanlovi ham xarakter rivojida muhim oʻrin tutadi. Adabiyotshunoslikda mazkur masala “ijtimoiy determinizm” va “shaxs tanlovi”

tushunchalari orqali izohlanadi. Ijtimoiy determinizm inson xarakteri va taqdirining shakllanishida tashqi muhit, tarbiya, iqtisodiy ahvol hamda jamiyatning hal qiluvchi rolini e'tirof etsa, shaxs tanlovi nazariyasi insonning o'z hayoti uchun mas'ul ekanligini ta'kidlaydi¹.

Sharof Boshbekov asarlaridagi obrazlar bir-birini takrorlamasligi bilan ajralib turadi. Ularning ba'zilar mehnatdan boshqasini bilmaydigan oddiy traktorchi, ba'zilar otasi ham, onasi ham ko'cha bo'lgan bezori, boshqasi esa tirikchilik, yashash uchun kurash yo'lida o'g'rilikni o'ziga kasb qilgan adashgan inson. "Falakning gardishi"dagi bizning qahramonimiz Shavkat ham hayot tegirmonida rosa toblanganlardan. Sharof Boshbekov qahramonni faqat muhit mahsuli sifatida tasvirlash bilan cheklanmaydi. Asarda insonning o'z taqdiri uchun javobgarligini ham alohida ta'kidlaydi.

Shavkat obrazi yozuvchining eng hayotiy va eng murakkab obrazlaridan biridir. Chunki Shavkatni faqat "o'g'ri" deb baholash uning butun taqdirini, ruhiy kechinmalarini va hayot yo'lini inkor etish bilan barobar bo'ladi. Yozuvchi qahramonning qilmishini emas, avvalo, uning taqdirini ko'rsatishga harakat qiladi. Asarni o'qir ekanmiz, Shavkatning hayoti bir haqiqatni eslatadi: inson dunyoga tayyor jinoyatchi yoki tayyor yovuz sifatida kelmaydi. Uni muhit, tarbiya, mehr va mehrsizlik shakllantiradi. Shavkatning eng katta fojiasi ham shunda ediki, uning bolaligi oilaning iliq bag'rida emas, ko'chaning sovuq quchog'ida o'tadi. Uning ota-onasi ham, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan murabbiysi ham bo'lmaydi. Shu sababli yozuvchi juda ta'sirli tarzda go'yo shunday xulosaga olib keladi: "Shavkat uchun ota ham ko'cha, ona ham ko'cha edi"². Ko'cha esa hech qachon farzand tarbiyalamaydi. Ko'cha faqat yashashni, kurashishni, ba'zan esa omon qolish uchun noto'g'ri yo'llarga kirishni o'rgatadi. Mehr ko'rmagan bola mehr berishni ham, halollikning qadrini ham o'z vaqtida anglab yetolmaydi. Shavkatning o'g'rilikka kirib qolishida ham uning yovuzligi emas, balki taqdirining shafqatsizligi ko'proq namoyon bo'ladi. Ammo yozuvchi qahramonni faqat fojia ichida qoldirmaydi. Uning qalbida insoniylik uchquni saqlanib qolganini ham ko'rsatadi. Shubhasiz, Shavkat obrazining eng muhim jihati ham ana shunda. U o'g'rilik qiladi, ammo bundan faxrlanmaydi. Aksincha, topgan pulini gapirayotganda qizarib ketadi, uyaladi. Bu uyat hissi uning qalbi hali butunlay qorayib ketmaganidan dalolat beradi. Chunki insonning vijdoni o'lsa, u uyalishni ham unutadi. Shavkat esa hanuz qilayotgan ishining noto'g'ri ekanini his qiladi. "Bir kuni yog'och samosval opkeldim. Oylik olgandim... Shunday deb, negadir, qizarib ketdi..."³ Demak, uning qalbida halollik va poklikning ildizlari hali qurib ulgurmagan. Xalqimizda "Uyat o'lmagan joyda or ham o'lmaydi" degan hikmat bor. Shavkatning

¹ Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.

² "Temir xotin" / jiddiy komediya / "Abadiy barhayot asarlar" turkumi -T.: "Oltin Qalam", 2024.- 128 b.

³ "Temir xotin" / jiddiy komediya / "Abadiy barhayot asarlar" turkumi -T.: "Oltin Qalam", 2024.- 128 b.

qizarib ketishlari, pul haqida gapirganda noqulay ahvolga tushishi uning qalbida or-nomus va vijdon hali yashayotganini ko'rsatadi. Shu sababli kitobxon unga nafrat bilan emas, achinish va hamdardlik bilan qaraydi.

Asarning yana bir ta'sirli jihati Shavkatning qizaloqni tarbiyalashi bilan bog'liq voqealarda namoyon bo'ladi. Oilasidan ayrilgan, umrining katta qismini yolg'izlikda o'tkazgan insonning uyida avval sukunat hukm suradi. Uy go'yo yashash uchun emas, tunash uchun xizmat qiladigan joyga aylanadi. Biroq qizchaning kirib kelishi bilan bu manzara o'zgaradi. Avvallari huvillab yotgan xonadon endi bolalarcha kulgilar, o'yinchoqlar va beg'ubor quvonchlarga to'ladi. Bu o'zgarish faqat uyda emas, Shavkatning qalbida ham yuz beradi. Qizaloq uning hayotiga ma'no olib kiradi. Chunki inson ba'zan o'zi uchun yashay olmaydi, lekin kimdir uchun yashashni boshlaganida o'zini qayta kashf etadi. Shavkat ham qizaloqqa ota bo'lish jarayonida o'z qalbidagi mehrni, mas'uliyatni va insoniylikni qayta topadi. Meni eng ko'p o'ylantirgan jihat shuki, yozuvchi bu obraz orqali insonni birgina qilmishiga qarab hukm qilish qanchalik noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Jamiyat ko'pincha natijani ko'radi, ammo sabablarni unutadi. Shavkatning o'g'ri bo'lib qolganini hamma ko'radi, ammo uni shu yo'lga boshlagan yolg'iz bolalikni, mehrsiz o'tgan yillarni va ko'cha tarbiyasini hamma ham ko'ravermaydi. Darhaqiqat, asarning asosiy g'oyalaridan biri ham shunda: insonni jazolashdan oldin uning dardini tushunish kerak. Chunki ba'zi odamlar yomon bo'lib tug'ilmaydi, balki hayotning qattiq zarbalari ularni shunday ko'rinishga keltirib qo'yadi.

Sharof Boshbekovning "Falakning gardishi" asari yozuvchi ijodidagi ijobiy yakun bilan tugaydigan asarlar sirasiga kiradi. Asar davomida Shavkat murakkab hayot yo'lini bosib o'tadi. Shavkatning navbatdagi o'g'riligi oqibatida olib kelgan sirg'asi Binafshaning bitiruv kechasida katta ko'ngilsizlikka sabab bo'ladi. Sirg'aning asl egasi qizning boy sinfdoshining onasi ekanligi ma'lum bo'lgach, Binafsha tengdoshlari oldida izza bo'ladi, qattiq ruhiy zarba oladi va hatto otasiga biroz muddat gapirmay qo'yadi. Qizining iztirobi Shavkat uchun eng og'ir jazo bo'lib xizmat qiladi. U ilk bor o'z qilmishlarining nafaqat o'ziga, balki eng yaqin insoniga ham zarar yetkazayotganini chuqur angelaydi. Ana shu anglash qahramon ruhiyatida tub burilish yasab, uni o'g'rilikdan butunlay voz kechishga olib keladi. Asar yakunida muallif inson har qanday sharoitda ham to'g'ri yo'lni tanlashga qodir ekanini, mehr va farzand muhabbati eng qotib qolgan qalblarni ham o'zgartira olishini badiiy asoslaydi. Shu jihatdan pyesa fojiaviy emas, balki umidbaxsh va hayotbaxsh ruhdagi yakun bilan nihoyasiga yetadi. Zero, "Farzand – qalb oynasi", deya bejiz aytilmagan. Shavkat ham qizining ko'z yoshlarida o'z hayotining achchiq haqiqatini ko'radi va shu haqiqat uni to'g'ri yo'lga qaytaradi.

Asarning yakuniy sahnalarida muallif ramziy tasvirlar orqali pyesaning bosh g'oyasini yanada teranlashtiradi. Binafsha va Akmalning to'yi bo'layotgan kunda

Shavkatning eski oshnasi Jamshid militsiya tomonidan qo'lg'a olinadi. Jamshid Shavkatdan farqli ravishda hayotdan saboq chiqarmagan, o'g'rilik va jinoyat yo'lidan qaytmagan obraz sifatida gavdalanadi. Shu sababli uning qismati ham fojiaiy yakun topadi. Bu holat Shavkat va Jamshid taqdirlarini qiyoslash imkonini beradi. Bir xil muhitda yashagan, bir xil yo'ldan yurgan ikki insonning biri halollik tomon yuzlansa, ikkinchisi jinoyat botqog'iga tobora chuqurroq botib boradi. Muallif shu orqali inson taqdirini faqat sharoit emas, balki uning o'zi tanlagan yo'l ham belgilashini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'shjonov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
2. Rasulov A. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
3. “Temir xotin” / jiddiy komediya / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi -T.: “Oltin Qalam”, 2024.- 128 b.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 137.